



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026



IJTIMOY, SIYOSIY MA'NAVY-AXLOQIY MASALALARNING QIT'A JANRIDAGI IFODASI

EXPRESSION OF SOCIAL, POLITICAL, SPIRITUAL AND MORAL ISSUES IN THE CONTINENTAL GENRE

Jo'raqulov Sardor Mashrab o'g'li

Guliston davlat universiteti,

O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

E-mail: sardorjoraqulov257@gmail.com

ORCID:0009-0001-7542-0582

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./RUZZ3364](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./RUZZ3364)

Annotatsiya. Mazkur maqolada buyuk mutafakkir Alisher Navoiy qit'alarida ma'naviy-axloqiy masalalarning ifodalanishi masalasi va Zahiriddin Muhammad Bobur qit'alarida ijtimoiy, siyosiy va tarbiyaviy masalalarning ifodalanishi masalasi o'rganilgan. Unda Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning shu mavzulardagi qit'alarida inson tiynati, uning ma'naviyati, siyosiy hayotdagi o'rni, ijtimoiy hayotdagi o'rni, tarbiyaviy masalalar ko'lami, axloqiy jihatlari ifodasi atroflicha o'rganilgan. Alisher Navoiyning shoirlik mahorati, uning qit'alari nafaqat o'z davrining, balki bugungi kun uchun ham dolzarb bo'lgan ko'plab masalalarni mavzu sifatida aks ettirgan asarlardir. Unda inson ma'naviyati, uning axloqi, qadriyatlariga munosabati, iymoni va e'tiqodi, do'stlik va mehnatsevarlik, ma'rifatga va ilm o'rganishga targ'ib, so'z qadri va uning ziynati, so'zga munosabat, ezgu amallarga da'vat, erk va diyonat kabi ko'plab masalalar ifodasi anglashiladi. Shuningdek, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur qit'alarining badiiy-estetik xususiyatlariga va qit'alarining tahliliga ham e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: qit'a janri, inson ma'naviyati, mavzular ko'lami, didaktik mazmun, shakliy ifoda, ijtimoiy hayot ifodasi, axloq masalalari va h.k.

Annotation. This article studies the expression of spiritual and moral issues in the poems of the great thinker Alisher Navoi and the expression of social, political and educational issues in the poems of Zahiriddin Muhammad Babur. It comprehensively studies the expression of human dignity, its spirituality, its place in political life, its place in social life, the scope of educational issues, and its moral aspects in the poems of Alisher Navoi and Zahiriddin Muhammad Babur on these topics. Alisher Navoi's poetic skills and his poems are works that reflect many issues that are relevant not only for his time, but also for today. It expresses many issues such as human spirituality, its morality, attitude to values, faith and belief, friendship and hard work, promotion of enlightenment and learning, the value of the word and its beauty, attitude to the word, call to good deeds, will and religion.



Attention is also paid to the artistic and aesthetic characteristics of the poems of Alisher Navoi and Zahiriddin Muhammad Babur and their analysis.

Keywords: *kit'e genre, human spirituality, scope of topics, didactic content, formal expression, expression of social life, moral issues, etc.*

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ko'plab lirik tur janrlari qatorida qit'a janrida ham samarali ijod qildi. Uning uch yuzdan ortiq qita'lari turli kulliyotlari tarkibida berilgan. Navoiy ushbu janr imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda qit'alarga didaktik mazmun yuklashga, ma'naviy-axloqiy qarashlarini ifodalashga muvaffaq bo'ldi. Mazkur janrdagi asarlar tarkibidagi ayrim misralar aforizm – hikmatlar sifatida el orasida haligacha ham mashhur. Bu kabi aforistik qit'alariga Navoiyning “Kuchuk birla xo'tukka qancha qilsang tarbiyat, It bo'lur dog'i eshak, bo'lmaslar aslo odami” misralari ham kiradi. “Alisher Navoiy qit'alari mavzu jihatdan ham turfa xil mazmunga ega bo'lib, shoir ushbu janrni mustaqil janr darajasiga ko'tarilishiga ham sababchi bo'lgan deyish mumkin” [I.Haqqul]. Darhaqiqat, Alisher Navoiy qalamiga mansub qit'alar turfa mavzularni qamragan bo'lib, unda tasavvuf masalalari, ma'naviy-axloqiy qarashlar ifodasi va shular qatorida ijtimoiy hayot muammolari ham aks ettirilgan. Bir qit'asida Alisher Navoiy shunday deydi:

*Buyuk maqomig'a ulkim tilar sabot kerak,
Ki egrilikni qo'yub, tuzluk aylasa qonun.
Tuz o'lsa soyasida el tinib minor kibi,
Sipehr uyida turar qarnlar nechukki sutun.
Gar egridur, yog'ibon o'qu bog'lanib bo'yni,
Bo'lur qabaq yig'ochidek besh-o'ncha kunda nigun.*

Ya'ni, kim buyuk martabaga erishmoqchi bo'lsa, unga sabr-toqat zarur bo'ladi. Shuningdek, u egrilikni qo'yib, to'g'rilikni o'ziga odat qilishi zarur. Dunyo uyida ustunlar abadiy turgani kabi yoki minoraning soyasida odamlar turgani kabi insondan ham boshqalar foyda ko'rmog'i mumkin bo'ladi. Egri bo'lgani uchun o'q yog'diraverilganidan kamoning holati uzukniki kabi o'ta egik holatga kelib qolishini esga olish kifoya ekanligi sabr-qanoat bilan to'g'ri yo'lni tanlash insonni abadiyatga dohil qilishi mumkinligiga asos bo'la olishi mumkinligiga misol sifatida keltiriladi.

Shoir ijodida bu kabi didaktik xarakterdagi qit'alar talaygina. Xususan, yana bir qit'asida:

*Xiromon suvda soyir bo'lmoqu uchmoq havo uzra,
Ajab ermas, qachonkim rostravliq qilsa ozoda.
Shior aylab bu ishni kema tiyri, ko'rki, suv uzra
Xirom aylab havog'a bodbondin soldi sajjoda.*

deyishida, rostgo'ylik qilgan odamning so'zlari chin bo'lganidan, uning odati rost so'zlamog' bo'lganidan, bir kuni suvda suzuvchi yoki havoda uchuvchi bo'la olishi xususida so'zlasa ham ishonish mumkin bo'ladi. Chunki rostgo'ylikni shior



qilgan kimsaga kemanding atrofidagi suv ustida o'sha kemanding yelkanlaridan joynomoz to'shab berilgandek bo'ladi. Ya'ni, insonlarning rostgo'yiligi ularga faqat yaxshiliklar olib keladi, deydi. Shoirning:

*Ey ko'ngul, tan taxtasin bu qa'ri yo'q girdobdin
Istasang sohilg'a chekmak, bilki, bu oson emas.
Piru iste'dodu tavfiq o'lmasa bo'lmas bu ish,
Kimdururkim, bag'ri bu hasratdin oning qon emas.*

qit'asida inson qalbi xususida so'z yuritilib, uni shoir bir ummonga o'xshatadi. Qalbning inson tanasidagi tubi ko'rinmaydigan girdobga mengzaydi va undan sohilga chiqish oson ish emasligini uqtiradi. Va bu holatni shoir ustoz-shogirdlik munosabatlari bilan bog'laydi va qalb ummoniga undagi yor ishq tufayli hosil bo'lgan ko'z yoshlar yoki g'am seli ummoniga g'arq bo'lmaslik uchun yo'l ko'rsatuvchi pir, iste'dod va tavfiq zarurati xususida so'zlaydi. Agar shu zaruratlar bo'lmasa, uning bag'ri hasratdan qon bo'lmaydi yoki bu dardning mohiyatini to'laqonli his etmaydi. Ko'rinadiki, mazkur qit'a tasavvufiy mazmunda bo'lib, orif shoir sulukning Yaratgan vasliga erishishi yo'lida unga yo'l boshlovchi, ya'ni piri komil va o'zidagi bunga rag'bat, tavfiq bo'lishi ham talab etilishi xususida fikr yuritilgan [Haqqul I.]. Ya'ni mutasavvuf shoir sulukning Olloh ishq vasliga musharraf bo'lishi yo'lida chekishi lozim bo'lgan mashaqqatlar va munosib yo'l boshchi zarurati xususida fikr yuritmoqda.

Zahiriddin Muhammad Boburning quyidagi qit'asini tahlilga tortadigan bo'lsak:

*Noumid bo'ldum, ey Mo'g'ul, sendin,
To eshitgimki, Andijon bording.
Aytg'on so'zga keldim, ammo, sen
Yaxshi kelding demay, yomon bording.*

Ushbu qit'ada Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining vatani Andijon va ona yurti bilan bog'liq murakkab hissiyotlarini ifoda etadi. She'rda mo'g'ullarni tanqid qilish orqali vatandan judo bo'lganlik iztirobi va qayg'usi, vatanparvarlik tuyg'ulari, siyosiy voqealar natijasida yuzaga kelgan adolatsizlikka nisbatan norozilik ifodalanadi. Boburning Andijon bilan bog'liq shaxsiy kechinmalari uning ijodida keng aks etgan bo'lib, ushbu qit'a ham shularning davomidir. Shoir ona yurtiga yetib bormoqchi bo'lganida unga qarshilik qiluvchi kuchlarni “Mo'g'ul” timsolida tanqid qiladi. Bobur o'z hayoti davomida ona yurti Andijon bilan bir necha bor aloqada bo'lishga va uni ozod qilishga intilgan, biroq siyosiy holatlar va chet el hukmdorlarining aralashuvi tufayli bu maqsadiga yetishish oson bo'lmagan. Ushbu qit'a shoirning o'z vatani va uning taqdiri bilan bog'liq orzularining barbod bo'lganidan qayg'uga tushganini ifodalaydi.

*Haq zotig'a biravki, xirad birla fikr etar,
Otin el ichra oqilu farzona aylabon.
Miqdorini tengiz suyining istar anglamoq,
Lekin hubob jomini paymona aylabon.*

Ushbu qit'aning mazmuni quyidagicha: Tangri zotining haqiqatida aql lol va nodon, oqillar esa bemajolu hayrondir. Kimki odamlar ichida o'zini oqil va dono ko'rsatib Tangrining zoti haqida aql bilan fikr qilmoqchi bo'lsa, u go'yo qo'lga pufakdan jom olib, dengiz suvining miqdorini bilmoqchi bo'lgan kishiga o'xshaydi.

Zahiriddin Muhammad Bobur devoni tarkibida 9 ta qit'asi mavjud bo'lib, bu qit'alar turli mavzuda yozilgan ular orasida Bobur o'z hayotidan olgan voqeyiy qit'alar ham, oshiqning dil rozi ham, pand-nasihatchi tarzidagi qit'alar ham mavjud.

Eyki, debsen lutf etib, lutfi itobomez ila:

Ko'nglung istar yorlar birla hamesha shod bo'!

Mendinu kimdin yana bordur niqori xotiring?

Mendin-u kimdinki ko'nglung istamas, ozod bo'!

Ya'ni, ey sen, qahr-g'azab bilan lutf etib, ko'nglung istagan yorlar bilan birga hamisha shod yashashimni aytibsan. Mendanmi yoki yana biron biron ginali xotirang bormi? Agar shunday bo'lsa, mendanmi yoki boshqadanmi ozod bo'lgin. Ko'rinadiki, bu ma'shuqaning ginalariga oshiqning javobi tarzida yozilgan qit'a ekan.

Yo'ldin ozdi har mulozimdinki, g'aflat aylading,

Budur oyin gar gadolig'dur ishing, gar shohlig'.

Urkudar eldekki chiqti kecha yo'ldin markabi,

Ko'z yumub ochquncha chunkim qilmadi ogohlig'.

Olam ahlida mulozimlar erur hayvon kebi,

Qaysi g'aflat anglag'och zohir qilur berohlig'.

Ushbu qit'aning mazmuni quyidagicha: Fahmsiz mulozimlar g'aflati va ular bilan biror ish qilmoqning mashaqqati haqida Mulozimlarningdan g'aflatda bo'lsang – bexabar qolsang, ular yo'ldan ozadi. Bu borada gado bo'lsang ham, shoh bo'lsang ham farqi yo'q – baribir shunday bo'ladi. Mudrab qolgan elning ulovi kechasi adashib ketganidek, ular ham ko'z yumib ochquncha ogoh bo'lmasang, tezda yo'ldan chiqadilar. Xojasining g'aflatini anglagach, beboshlik qiladigan mulozimlar bu olamda ayni hayvon kabidirlar. Ya'ni, insonlar Fahmsiz mulozimlar g'aflatida va alar bila maosh o'tkarmak mehnatida.

Ko'rsang, ey zohid, muqomirvash qalandarpehaye,

Bo'lma ko'p mashg'ulu dunyo shug'lidin qil ijtinob.

Dona o'ynab vajhin isor etsang, andin yaxshikim,

Evurub tasbihi yormoq sudin etgaysen hisob.

Ya'ni ma'nosiga ko'ra, qalandarlikni odat qilgan qimorboz tabiatli ey zohid, bu dunyo ishlari bilan ko'p shug'ullanmay ulardan chetlash, dona o'ynab, Yaratganga o'z hurmatini izhor etsang, tasbih o'girib, oltin foydasiga ega bo'lasan. Ya'ni o'zining sidqidildan qilgan toat-ibodati orqali Yaratganning cheksiz marhamatiga ega bo'ladi.

Poklar joni bo'lur ozurda tazvir ashkidin,

Ko'zgu ruxsori nechukkim zang tutqay nam bila.



*Rostlar ko'nglini aylar tiyra nodon yovadin,
Sham'ni ul nav'kim johil o'churg'ay dam bila.*

Ya'ni ko'zguning yuzi namlik tufayli xira tortganidek, halol kishilarning joni yolg'on ko'zyoshlaridan ozor chekadi. Shamni johillar o'z nafasleri bilan o'chirgan kabi to'g'ri kishilarning ko'ngli yolg'on so'zlardan xira tortadi, dili xufton bo'ladi. Bunda Navoiy hazratlari badiiy san'atlardan unumli foydalanib, halol kishilar va rostgo'ylarning aldangan, firiblangan holatlarini asoslab ko'rsatadi. Halol kishilar qalbi ozorlanishini ko'zguning suv bug'i tufayli xira bo'lishi kabi hayotiy asosdan foydalangan bo'lsa, rostgo'ylar qalbi ozorlanishi holati uchun shamning hohil kishilar tomonidan puflab o'chirilishi holatini asos sifatida keltirib o'tadi.

Yana bir qit'asida shoir shunday deydi:

*Navoiy, tiling asrag'il zinhor,
Desangkim, yemay dahr ishidin fusun.
Nazar qilki, o'q og'zi tilsiz uchun
Qilur tojvarlar bila dastbo's.
Necha tojvardur, kesarlar boshin,
Chu hangomsiz nag'ma tortar xuro's.*

Ya'ni, Navoiy dunyo ishlaridan, bu dunyoning tashvishlaridan ko'p so'zlayvermasdan, o'z tilingni asragil. Ko'rgilki, oq og'zi tilsiz bo'lganlar tojdorlar bilan yaqin munosabatda bo'ladi. Garchiki, tojdor bo'lsa ham hadeb, bemahalda qichqiraversa, xo'rozning ham boshini kesadilar. Ya'nikim, tilingni ortiqcha so'zlashdan tiya olsang, boshing omon bo'ladi, bo'lmasa xo'rozning kuniga tushishing hech gap emas. Ko'rinadiki, Navoiy hazratlari insonning boshiga keladigan balolarning asl sabachisi til bo'lishini, uni o'ta erkin qo'yib yuborish o'sha insonga kulfatlar keltirishini yana bir bor eslatmoqchi bo'ladi.

*Biyik maqomliq el tiftl ekanda ham bo'lmas,
Ki tiyra qilg'ay oni jahlu zulmat ahli tili.
Qamar charog'i agar bo'lsa barcha bir kechalik,
Ne nav' o'churgay oni shabparak qanota yeli?*

Mazkur qit'ada xalqi ichida yuksak maqomlarni, o'rinlarni egallagan elat yosh bolachalik ham obro' topmay qolishi mumkinligi, bunga sabab esa johillar va zulmat ahlidan bo'lgan yomon kimsalarning tili ularning boshiga balolar yog'dirishi mumkinligida deb ko'rsatiladi. Bu holat esa shoir tomonidan o'ying nuri kechanigina yoritib turganida, uni ko'rshapalak qanotining yeli ham to'sib qo'yishi, agar u sham bo'lsa, bu yog'duni o'chirib qo'yishi mumkin bo'lgani tamsil san'ati bo'lib, fikrni asoslash uchun keltirib o'tiladi.

Yana bir qit'ada shoir shunday deydi:

*Tavakkulni ulkim qo'yub xotirig'a,
Tushar shoh ollinda qulluq havosi.
Nasibi aning bir ayoq osh erur bas,
Agar ganji Qorun erur muddaosi.*



*Biravkim, bo‘lur bir ayoq osh uchun qul,
Yuziga keraktur qazonning qarosi.*

Ya'ni, bir manzilni ko'zlab shoh yo'lga tushar ekan, uning oldiga qulluq qiluvchilar parvona bo'ladilar. Ularning maqsadi Qorun ganjinasini qo'lga kiritish bo'lsa ham, nasibasi bir jomda yoki idishda ovqat xolos ekanligi ma'lum. Kimki bir tovoq ovqat uchun qul bo'lsa, undan ko'ra yuzlariga qazonning qorasini surtib sazoyi bo'lganlari ham ma'qul bo'ladi. Ya'ni, kishilar bir kosa ovqatga qorni to'yishini bilsa ham, bunga qanoat qilmay, laganbardorlik yoki o'z izzat nafsini oyoqosti qilish orqali boylikka yoxud mansabga erishmoqchi bo'ladi. Lekin uning bu tutumi yuziga qora surtgan el ichidagi sazoyining ishidan ham yomon ekanligini daho ijodkor eslatib o'tmoqchi bo'ladi.

*Kimki maxluq xizmatig'a kamar
Chust etar – yaxshiroq ushalsa beli.
Qo'l qovushturg'ucha bu avlodur,
Ki aning chiqsa egni, sinsa ili.
Chun xushomad demakii boshlasa kosh,
Kim tutulsa dami, kesilsa tili.*

Mazkur qit'asida Hazrat Navoiy kimdir maxluqlar xizmatiga kirishsa, uning beli yaxshilab bog'langanligidan o'z vazifasini chaqqonlik bilan bajara oladi. Insonlarning qo'l qovushtirib, qarab turganidan shu ham yaxshiroqdir. Maxluqlar xizmatini qilgandan ko'ra, uning yelkasi chiqib, qo'li sinib qolgani ham ma'qul. Agar xushomadni boshlab qolsa, koshki uning nafasi qaytib, tili kesilib qolsa, deydi. Ya'ni norasolar xizmatida bo'lgan kishilarning boridan yo'g'i yaxshi. Xushomadgo'y va laganbardor kishilarning nosamimiy xatti-harakati ulardan nafratlanishga sabab bo'lishi ta'kidlanmoqda va ularning bu xatti-harakati shoir tomonidan qoralanmoqda.

*Quloqda asra garonmoya so'z niyu fikr et,
Ki dursiz o'lsa, ne bo'lg'usidur sadaf holi.
So'zungni dog'i ko'ngul ichra asrag'ilkim, hayf,—
Kim uyla durjni guhardin etgasen xoli.
Bu darju ikki sadafni to'la dur etganga,
Zihi uluvvi guhar, balki gavhari oliy.*

Yuqoridagi qit'ada shoir so'zning qudrati va yaxshi, foydali so'zlarning qimmatini xususida so'z yuritgan. Quloqqa yoqadigan, donish va qimmatli so'zlarni asra va fikr et, agar duri bo'lmasa sadafning holi nima bo'lardi? Asl so'zlaringni ko'ngil ichida asragilkim, agar qutichani gavhardan holi etsang, ya'ni bo'shatsang u xayf bo'lganidek. Bu gavhar solinadigan qutida, ya'ni sadaf ichida ikkita dur solingan bo'lsa, bunda quti ulug'lanmaydi, balki uning ichidagi gavhar qimatbaho bo'lganidan ulug'lanib, tarannum etiladi, deydi. Ya'ni insonning ulug'lanishi uning donishmandligi va aqli bilan bog'liq. Inson behudaga qimmatli so'zlarini sarflamasa, u o'zidagi ilmi yoki bilim javharlari orqali ham ulug'lanadi.



Ya'ni uning botinidagi donish va bilim uning hurmatga sazovor bo'lishiga sabab bo'ladi.

Yana bir qit'asida shoir:

*Ne rahraveki, toji hidoyat boshidadur,
Yo 'q bok anga havodisi aflok toshidin.
Hudhudki, qo 'ydilar azaliy toj boshig 'a,
Tushgaymu jola yoqqon ila toji boshidin?*

deyish orqali taqdiri azalda hidoyat nuri bilan yo'g'rilgan insonni falak toshlari yog'ilishi ham shikastlay olmasligini uqtirmoqchi bo'ladi. Kimnikim, boshida hidoyat toji bor bo'lsa, unga falak hodisotlari toshi yog'lsa ham zarar yetkaza olmaydi. Inchunun, hudhudning boshidagi tojiga jala yoqqani bilan tushib ketmaganidek, hidoyat toji ham inson boshidan biror hodisot tufayli tushib ketmaydi. Ya'ni, hidoyat nuriga yo'g'rilgan insonni Yaratganning o'zi asraydi va unga balo-qazolar ham daf etolmaydi. Mazkur qit'adan yana bir ma'noni, ya'ni azalning hukmiga hech kim monelik qila olmasligi ma'nosini ham tushunish mumkin.

Alisher Navoiyning didaktik mazmundagi yana bir qit'asida asli yomon va tuban bo'lgan kimsaga yaxshi so'z bilan vaqtni ketkazmaslik haqida so'zlaydi.

*Yuziga asli yamonning ko 'p ochma gulshani xulq,
Siyah gilemga albatta mehr aylama fosh.
Qi qilmadi gul isi birla toza ruh jual,
Quyosh charog 'ig 'a parvona bo 'lmadi xuffosh.*

Asli yomon bo'lgan kimsaga yaxshi xulq bilan mehr ko'rsatma, qora rangdagi gilamga mehr berganing bilan oqarib qolmaydi. Go'ng qo'ng'izi gulning xushbo'y iforidan bahramand bo'lmaganidek, taralayotgan nurga parvona o'zini uravergani bilan ko'rshapalakka aylanib qolmaydi. Ya'ni, o'zi tabiiy bo'lgan g'arazgo'y va tuban kimsaga o'z vaqtingni sarflama, go'ng qo'ng'izi gul iforidan bahra ola olmaganidek, unga ham yaxshiliklar aslo ta'sir ko'rsatmaydi.

Yana bir qit'asida Navoiy:

*Chu dushman o 'ldi qadimiy, ziyonidin hazar et,
Agarchi nutqi ravonbaxshi jong 'a rohat erur.
Suv birla o 't aro ziddiyat o 'ldi chun azaliy,
Agar hayot suyidurki, o 'tg 'a ofat erur.*

Ya'ni, o'zingga ziyondan hazar etib, qadimiy dushmanlardan ehtiyot bo'l, garchi uning nutqi jonga rohatday tuyulsa ham. Suv bilan olov o'rtasidagi ziddiyat ham abadiydir, u hayot baxsh etadigan suv bo'lsa ham olov uchun ofatdir, deyish orqali asli dushman hech qachon do'st bo'lmashligini yana bir bor eslatib o'tadi.

Xullas, buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning shoirlik mahorati, uning qit'alari nafaqat o'z davrining, balki bugungi kun uchun ham dolzarb bo'lgan ko'plab masalalarni mavzu sifatida aks ettirgan asarlardir. Unda inson ma'naviyati, uning axloqi, qadriyatlarga munosabati, iymoni va e'tiqodi, do'stlik

va mehnatsevarlik, ma'rifatga va ilm o'rganishga targ'ib, so'z qadri va uning ziynati, so'zga munosabat, ezgu amallarga da'vat, erk va diyonat kabi ko'plab masalalar ifodasi anglashiladi. Alisher Navoiy qit'alari bugungi kunda ham o'z kuchini yo'qotmagan. Aforizm darajasidagi qit'alar xalq qalbidan chuqur joy olgan. Ma'naviy-axloqiy masalalar qit'alarning assiy mazmun mundarijasini tashkil etgan.

Adabiyotlar:

1. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/ibrohim-haqqul-qita-va-gazal-munosabatiga-doir.html> Ibrohim Haqqul. Qit'a va g'azal munosabatiga doir. Pg.2.
2. Haqqul I. Kamol et kasbim. – Toshkent: Cho'lpon, 1991. – 146 b.
3. Ibrohim Haqqul. Qit'a va g'azal munosabatiga doir. // O'zbek tili va adabiyoti, 1978-yil, 6-son.
4. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, 4 жилдли. – Тошкент, Фан, 1983-1985.
5. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдли. Хазойин ул-маоний. 3-китоб. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 703-715.
6. Бобур девони. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 11-12.
7. Kuylieva G., Saymuratova I., & Jurakulov S. (2024). Interpretation of man and universe in historical epics. *Modern Science and Research*, 3(1), 1–9. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27868>.
8. Jurakulov Sardor (2024). Expression of mystical images in uzbek storyworking. *Eurasian Journal of Technology and Innovation*, 2 (1-1), 40-44.
9. Kholbekovna F.O. (2022). The artistic-aesthetic nature of rauf parfi's poetry. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(5), 332-340.
10. Kholbekovna, F. O., & Oglu, E. B. J. (2021). Development and Improvement of Cyclicity. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 12049-12054.
11. Epic M. M. S. S. (2020). Bakhrom and Gulandom” and the Folk Tales. *Scientific Reports of Bukhara State University*, 5(81), 34-38.
12. Rakhmonkulovich, M. M. (2022). Folklore Traditions In The Epos Of Sayyadi “Tohir And Zuhro”. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 14, 4-10.
13. Mamatqulov M. (2020). Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom” dostonida irsol ul-masal san'ati. *Filologik ta'limni takomillashtirish muammolari*, 176.
14. Mamatqulov, M. (2021). Sayyadi–ghazal writer. *Bulletin of Gulistan State University*, 2021 (1), 46-50.
15. Turaeva D. Process of fiction creativity and writer's skill. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych*, 70.
16. To'rayeva D. (2024). Badiiy asar boigrafiyasi bilimdoni. *Hamkor konferensiyalar*, 1(2), 67-70.